		xizmatmuddati oxiridaaktivnitugatishchog'ida olinishikutilayotgan, aktivningtaxminqilinayotgan (baholangan) summasi.
Current value	Joriy qiymat	ma'lumsanadagiamalqilayotganbozornarxlaribo'yi chanomoddiyaktivlarningqiymatiyoki xabardorqilingan, bitimniamalga oshirishni xohlovchi, bir-biridanmustaqiltaraflaro'rtasidabitimniamalga oshirishdaaktivnisotib olishyokimajburiyatlaribajarishuchunetarlibo'lga nsumma;
Remains value	Qoldiq (balans) qiymat	nomoddiyaktivmoliyaviyhisobot (buxgalteriyabalansi)daaksettiriladigan, boshlang'ich (tiklash) qiymativajmlanganamortizatsiyasummasio'rtasid agifarqsifatidaaniqlanadiganmiqdor;
Active market	Faolbozor	oldi-sotdi ob'ektlaribirturda (bir xil) bo'lganvaharqandayvaqtdabitimniamalga oshirishni xohlovchimanfaatdorsotuvchiva xaridorlarnitopishmumkinbo'lgan, shuningdeknarxlarhaqidagima'lumotlar oshkor (hammabop) bo'lganbozor;
Absolute rights	Mutlaququq	bufaqtginahuquqegasitomonidanyokiuningrozilig ibilanqonunhujjatlaridabelgilangantartibdauchinch ishaxsgaberilishimumkinbo'lganmulkiyhuquq.
Accounting operations	Hisob – kitob operatsiyalari	korxonatomonidanyokikorxonaishtirokidahisob (moliya) yilidavomidasodiretilgan operatsiyalarnatijasidayuzagakelgandebitorlikvkr editorlikqarzlarningso'ndirilishi.
Real value of debtor and creditor debts	Debitorlikvakreditorlikqarzlarninghaqiqiyqiymati	korxonaningjamidebitorlik (kreditorlik) qarzlarningfaqtginaso'ndirilishimumkinbo'lganq ismi.
Questionnaire on inner control system	Ichkinazorattizimibo'yichas avolnoma	mijozkorxonaichkinazorattizimisifatinitekshirishv abaholashmaqsadidatuzilganmaxsusishchiqog'oz.
Control risk at accounting operations	Hisob – kitob operatsiyalaridanazoratrisk i	hisobkitob operatsiyalariganisbatanichkinazoratriskiningmavj udbo'lishi, ammo butizimningsifatsizligisababbuxgalteriyatizimidahi sobkitob operatsiyalariningnoto'g'riaksettirilganbo'lish xavfi.
Coding workpapers	Ishchiqog'ozlarnikodlashtir ish	audittekshiruvijarayonidatuzilganbarchaishchiqog' ozlarniauditorlikfirmasidaqabulqilinganraqamlasht irishtizimiasosidajoriyvadoimiifyayllardaarxivlash.
Contocorrect copy	Kontokorrektko'chirma	– mijozkorxona xaridoriG' moletkazibberuvchisivamijozturlishaharlardajoyla shgantaqdirda, ikkitarafningo'zaro debitorlikG' kreditorlik operatsiyalaribo'yichahisob-kitoblariniinventarizatsiyauchuntuziladiganva xaridorlargayuborishuchunmo'ljallanganmijozkor xonahisob-kitoblaritahliliyschetasinusxasi.

Mutual comprasion evidence on accounting	Hisob-kitoblarbo'yichao'zaro solishtirmadalolatnomasi	– mijozkorxonaxaridoriG`moletkazibberuvchisimijozbilanbirshahardajoylas hganbo'lsa, ikkitarafningo'zaro debitorlikG`kreditorlik operatsiyalaribo'yichahisob-kitoblariniinventarizatsiyadatu ziladiganhujjat.
Positive comprasion evidence	Ijobi solishtirmadalolatnomasi	– mijozkorxonavamijoz xaridorlariG`moletkazibberuvchilario'rtasidaamalga oshirilganvaikkitarafbuxgalteriyatizimidaaksettiril ganhisob – kitob operatsiyalarinatijalariningauditortomonidaninvent arizatsiyasibir xilma'lumotniaksettirishiyokimuximbo'lmaganfar qningyuzagakelishi.
Negative comprasion evidence	Salbi solishtirmadalolatnomasi	– mijozkorxonavamijoz xaridorlariG`moletkazibberuvchilario'rtasidaamalga oshirilganvaikkitarafbuxgalteriyatizimidaaksettiril ganhisob – kitob operatsiyalarinatijalariningauditortomonidaninvent arizatsiyasiturlima'lumotlarniaksettirishi (muximfarqningyuzagakelishi).
Indicating tests on accounting operations	Hisob - kitob operatsiyalaribo'yichaaoslovchitestlar	– hisobkitob operatsiyalariningmoliyaviyhisobotlardakeltirilgan summalarito'g'ri (asosli) ekanliginitekshirishgayo'naltirilgantestlarmajmui.
Active	Aktiv	- buxgalteriyabalansiningbirkismibulib, ma'lumbirmuddatgasub'ektmablaglariningtarkibiv ajoylanishinipulkurinishidaaksettiradi. Bundantashqaribalansningpassivqismihammavjud bo'lib, aktivvapassivtomonlarbo'limvamoddalardaniborat . Aktiv tomonining jami summasi passiv tomoni summasi bilan teng bo'lishi lozim. Buni shunday tushuntirish mumkin, ya'ni aktiv tomonidagi mablag'larning manbalari, balansning passiv tomonida joylashgan.
Accretion	Akkreditiv	- nakd pulsiz hisob-kitob turlaridan biri. Ma'lum bir tovar va xizmatlar uchun belgilangan muddatda mol etkazib beruvchilar bilan hisob-kitoblar uchun ajratilgan pul mablag'idir. Akkreditiv quyidagi xollarda qo'llaniladi: xaridor va mol etkazib beruvchi o'rtasidagi shartnomaga asosan, xaridor va mol etkazib beruvchi o'rtasidagi xo'jalik munosabati doimiylikka ega bulmasa, xaridor tovarni mol etkazib beruvchi manzilida qabul qilib olsa, xokimiyat ko'rsatmasi va yo'riqnomasiga ko'ra, tovar etkazib berishning alohida ma'lum bir sharoitlarida bank muassasasi talabi bilan kreditlash va hisob-kitobning ma'lum usuliga o'tgan korxonalar munosabatida, tovar moddiy boyliklarining me'yorida yuqori zahiralarga ega bo'lgan korxonalar munosabatida.
		(lat. accueptuk - qabul qilingan) - belgilangan

Accept	Aksept	sharoit bo'yicha shartnoma tuzishga rozilik berish. Naqd pulsiz hisob-kitobda aksept xaridorning mol etkazib beruvchi taqdim qilgan hisobini to'lashga rozilik bildiradi.
Acceptance	Akseptant	(lat. acceptaiik - qabul qiluvchi) - hisob bo'yicha to'lovni amalga oshirishga rozilik bergan korxonalar, tashkilotlar va muassasalar yoki shaxslar.
Accepting	Akseptlash	(lat. acceptare - qabul qilish) - to'lov hisobini qabul qilish, mol etkazib beruvchi schetiga to'lovni o'tkazishga rozilik berish.
Balance	Balans	(fr. balance- muvozanat, tarozining ikki pallasi) - doimiy o'zgarishda va o'zaro bog'liq kattaliklarning holatini ko'rsatuvchi, ko'rsatkichlar tizimi, tenglik.
Accounts in balance	Balansdagi schetlar	- buxgalteriya ko'rsatkichlari balansida aks ettiriladigan buxgalteriya schetlaridir.
Bank correspondent	Bank korrespondent	- boshqa banklar bilan o'zaro munosabatlarda bo'ladigan va ularning topshiriqlari bilan ma'lum bir moliyaviy jarayonlarni bajaruvchi bank.
Initial documents	Birlamchi hujjatlar	- buxgalteriya hujjatlari bo'lib, xo'jalik jarayoni sodir bo'lgan vaqtda tuziladi va ular sodir etilganligi haqida birlamchi guvohnoma hisoblanadi.
Main contract	Bosh shartnoma	- umumiy ish bajarish yoki tovar etkazish davri tugagunga qadar muddatga tuzilgan shartnoma.
Accounting balance	Buxgalteriya balansi	- ma'lum bir davrda xo'jalik mablag'lari va ular manbalarining pul qiymatini guruhlab va umumlashtirib aks ettirish usuli.
Notes of accounting	Buxgalteriya daftarlari	- sintetik va analitik hisobni hujjatlarga asosan kayd qilish.
	Buxgalteriya o'tkazuvi	- schetlar korrespondentsiyasini yozish. Bunda xo'jalik jarayoniga tegishli summa bir schetning debeti va ikkinchi schetning kreditida aks ettiriladi. Buxgalteriya o'tkazmasi hujjatlar (jurnal-order, tabulyagramma yoki eski hujjatlar shakli memorial-order) ga asosan tuziladi
Registration	Qaydnoma	- birlamchi hujjat yoki hisob registri. Qaydnoma yig'ma hujjat bo'lishi ham mumkin. Qaydnomadan buxgalteriya hisobining hamma shakllarida xam foydalaniladi.
Claim	Da'vo	- da'vo qo'zg'atuvchining talabi. Korxonalar ularga qarzdorlarga (debitorlarga) o'z vaqtida to'lanmagan qarzlik summalar uchun da'vo qo'zg'atishlari lozim. Da'vo moddiy zarar keltirganlarga nisbatan asosli ravishda qo'zg'atilishi zarur (debitorlik qarzlari, da'volar yuzasidai hisob-kitoblarga qarang).
Debit	Debet	(lat. debet - u majbur) - buxgalteriya hisobining bir qismi. Aktiv schetlarning debetiga summalarning ko'payishi yozilsa, passiv schetlarda esa,

		summaning kamayishi yoziladi. Hisoblashish schetlarining debetida esa, boshqa korxonaga va shaxslarning shu korxonaga qarzlari aks ettiriladi va debetorlik qarzlari deyiladi. Debet qoldiklari esa, aktiv va aktiv-passiv schetlarda bo'ladi.
Debtors	Debitorlar	(lat. debitor - qarzdor) - ushbu sub'ektga qarzdor bo'lgan boshqa korxonaga, tashkilot, muassasa yoki shaxslar bo'lib, ular debitorlik qarzlarini to'lashlari lozim.
Depots	Deponent	(lat. depono - yig'aman) - korxonaga, tashkilot, muassasa yoki jismoniy shaxsning korxonaga, tashkilot, muassasada vaqtincha saqlayotgan mablag'i.
Dividend	Dividend	- aksiyadorlik jamiyati foydasining bir qismi bo'lib, aksiyadorlar o'rtasida soliqlarni, ishlab chiqarishni kengaytirishga ajratmalarni, zahiralarni tashkil etish, obligatsiyalar bo'yicha foizlarni va boshqa to'lovlarni amalga oshirilganidan so'ngina taqsimlanadi.
Dotation	Dotatsiya	- korxonaga, tashkilot, muassasalarga qarzlarni qoplash uchun davlat tomonidan beriladigan nafaqa.
Rental	Ijara	(polyak. - аренда va lat. arrendare - qarzga foydalanishga berish) - SHartnoma asosida buyumlarning vaqtinchalik foydalanishga belgilangan ijara haqi to'lovi asosida berilishi.
Rent	Ijarachi	- biror narsani ijaraga olgan korxonaga, tashkilot va muassasa yoki jismoniy shaxs.
	Inventarizatsiya	- korxonaga tegishli bo'lgan barcha asosiy vositalar, inventarlar, mablag'lar va boshqa moddiy boyliklarning haqiqatda mavjudligi bilan buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini solishtirish va tekshirish usuli.
	Inventar kartochkalar	- asosiy vositalar (fondlar)ning hisobi uchun mo'ljallangan hisob registrining shakli. Inventar kartochkalar har bir ob'ekt xo'jalikka keltirilganda tuziladi.
	Inventar ob'ekti	- tugallangan qurilish, buyum yoki kompleks inventar ob'ekti asosiy vositalar tarkibida hisobga olinadi. Har bir korxonada inventar ob'ektlari ko'p bo'lib, ularning har biri bo'yicha hisobni to'g'ri tashkil etish uchun inventar raqam belgilanadi.
	Inkassalash	- inventar ob'ektga birlashtirilgan raqam. Inventar raqami asosiy vositalar (fondlar) hisobini to'g'ri tashkil etish uchun va ob'ektlarning saqlanishini ta'minlash uchun zaruriy hisoblanadi. Bir turdagi buyumlarning guruhi uchun shu ob'ektlarning haqiqiy holati, eng ko'p qiymatini hisobga olgan holda, raqamlar seriyasi ajratiladi. Buxgalteriya hujjatlarida asosiy vositalar hisobida ushbu inventar raqamlar ko'rsatiladi.

	Ishlab chiqarish xarajatlari	- korxonaning mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq xarajatlari (mehnat haqi, xom ashyo, material, yoqilg'i, asosiy vositalarning eskirishi va xokazolar).
	Kalkulyasiya	(lat. calculatio - hisoblash) - bajarilgan ish, tayyorlangan mahsulot, qabul qilingan moddiy boyliklar qiymatini aniqlash, xarajatlarni guruhlash usuli.
	Kassa kitobi	- korxonada kassiri kassa jarayonlari hisobini yurgizishiga mo'ljallangan hisob registrlari.
	Kassa limiti	- korxonada kassasida doim bo'lishi mumkin bo'lgan pul mablag'larining summasi. Bu summa kunlik mayda xarajatlar uchun ishlatiladi.
	Kassaning orderlari	- korxonada kassasiga pul kirimi va chiqimining qonuniyligini va belgilangan maqsad bo'yicha amalga oshirilganligini asoslovchi hujjatlar.
	Kelgusi davr daromadlari	- hisobot davrida olingan, ammo kelgusi davrga tegishli bo'lgan mablag'lar.
	Konsalting	- maslahat xizmatini ko'rsatish va ekspertiza o'tkazish. Konsalting bilan shug'ullanadigan firmalar konsultativ deb ataladi.
	Konsignatsiya	- tovarlarni xorijga sotishning komission shakli bo'lib, unga ko'ra tovarlarning egasi (konsignant) u erdagi o'z komissioneriga (konsignatoriga) tovarlar partiyasini sotish uchun jo'natadi.
	Korxonaning bankdagi hisobidan ko'chirma	korxonaning hisob-kitob, joriy va maxsus schetlaridagi pul mablag'larining harakati haqida bank muassasasining yuborgan hujjati.
	Kredit	(lat. credit - u ishonadi) - buxgalteriya schetining bir qismi. Aktiv schetlarning kreditida hisob ob'ektining kamayishi yoziladi, passiv schetlarda esa ushbu hisob ob'ektlari summasining ko'payishi yoziladi. Kredit tomondagi kredit-passiv va aktiv-passiv schetlarda bo'ladi.
	Majburiy to'lov	- egasining roziligisiz hisob-kitob schetidan pul mablag'ining o'tkazilishi. Masalan, majburiy to'lovlariga; davlat byudjetiga, davlat ijtimoiy sug'urtasiga to'lov, sug'urta to'lovlari va boshqa belgilangan qoidalarga asosan to'lovlar kiradi.
	Mehnat balansi	- mehnat resurslarining (ish kuchi, ish vaqti) haqiqatda yoki kutilgan va ulardan foydalanish mikdorini aks ettiradi. Mehnat balansida ishchi kuchini qayta ishlab chiqarish, joylashtirish va mehnat resurslarini iste'molga mos ravishda taqsimlashning asosiy jarayonlari haqida ma'lumotlar ko'rsatiladi.
	Auditor	- auditor malaka sertifikatiga ega bo'lgan jismoniy shaxsdir. Auditor mehnat shartnomasi bo'yicha yoki fuqarolik-huquqiy shartnoma bo'yicha faqat bitta auditorlik tashkiloti bilan ishlashi mumkin.

	Auditorning yordamchisi	auditor malaka sertifikatiga ega bo‘lgan va auditorlik hisobotida, auditorlik xulosasida auditorning ekspert xulosasida hamda auditorlik tekshiruvini o‘tkazish bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa rasmiy hujjatda imzo chekish huquqiga ega bo‘lgan tarzda auditorning topshirig‘iga binoan auditorlik tekshiruvida ishtirok etayotgan jismoniy shaxsdir.
	Auditorlik faoliyati	auditorlik tashkilotlarining auditorlik tekshiruvlarini o‘tkazish va professional xizmatlar ko‘rsatish borasidagi tadbirkorlik faoliyati tushuniladi.
	Auditorlik tekshiruvi	moliyaviy hisobot va boshqa moliyaviy axborot to‘g‘riligi va qonun hujjatlariga mosligini aniqlash maqsadida xo‘jalik yurituvchi sub‘ektning moliyaviy hisobotini hamda u bilan bog‘liq moliyaviy axborotni auditorlik tashkilotlari tomonidan tekshirishdir.

MUSTAQIL ISHLARINI BAJARISHGA USLUBIY KO‘RSATMA.

Kirish

Mazkur uslubiy ko‘rsatma O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2010 yil 14 avgustdagi 286-sonli «Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish to‘g‘risida»gi buyrug‘i bilan tasdiqlangan «Talabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish» bo‘yicha yo‘riqnomasi, 2010 yil 7 avgustdagi 276-sonli buyrug‘i bilan amalga kiritilgan «Oliy ta‘lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to‘g‘risida Nizom»ga ko‘ra hamda JizPI «SERVIS» fakulteti Ilmiy Kengashining 2016 yil 27 avgustdagi 1-bayonnomasi bilan tasdiqlangan «Iqtisodiy tahlil va audit» fani bo‘yicha Ishchi o‘quv dasturi asosida ishlab chiqilgan.

«Iqtisodiy tahlil va audit» fanidan talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish, nazorat qilish va baholash bo‘yicha tayyorlangan ushbu uslubiy ko‘rsatma bakalavriat bosqichi menejment ta‘lim sohasining barcha yo‘nalishlari 2-kurs SERVIS fakulteti talabalarining mazkur fandan mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilishda foydalanish uchun tavsiya etiladi.

Mustaqil ishning o‘ziga xosligi shundaki, o‘quv faoliyatining bu qismi talabalarning mustaqil faolligi hamda tegishli professor-o‘qituvchilarning nazorati asosida tashkil etilib, o‘quv rejada semestrlar bo‘yicha belgilangan soatlar hajmiga ko‘ra amalga oshiriladi. Xususan, bakalavriat bosqichi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash texnologiyasi ta‘lim sohasining barcha yo‘nalishlari uchun «Iqtisodiy tahlil va audit» fani bo‘yicha mustaqil ishlarning umumiy hajmi o‘quv rejada 50 soat miqdorida belgilangan.

Mazkur uslubiy ko‘rsatmada talabalar mustaqil ishlarining asosiy shakllari va ularning mazmuni, mustaqil ishni amalga oshirishda talaba bajarishi lozim bo‘lgan vazifalar, mustaqil ishni bajarish bo‘yicha maslahatlarni tashkil etish, ularni nazorat qilish va baholash tartibi bayon etilgan.

2.Talabalar mustaqil ishlarining mazmuni va asosiy shakllari

«Iqtisodiy tahlil va audit» fani bo‘yicha talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish ularda iqtisodiy bilim, dunyoqarash, ijtimoiy faollik va mustaqil fikrlashni shakllantirishga qaratilgan tadbirlar tizimini o‘z ichiga oladi. U o‘quv rejasi va fanlar dasturlarida ko‘zda tutilgan zarur bilimlar va ko‘nikmalarning talabalar tomonidan oqilona, kam vaqt va kuch sarflab o‘zlashtirilishini ta‘minlaydi.

Iqtisodiyot nazariyasini o‘qitish jarayonini takomillashtirish, talabaning qiziqishlarini, anglash faolligini va mustaqil ishlarini rivojlantirish yo‘nalishida boradi, bunda ijodiy fikrlash, mustaqil o‘qish, ko‘nikma va layoqatlari shakllanadi.

Talaba mustaqil ishi – muayyan fandan o‘quv dasturida belgilangan bilim, ko‘nikma va malakaning ma‘lum bir qismini talaba tomonidan fan o‘qituvchisi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya va auditoriyadan tashqarida o‘zlashtirishiga yo‘naltirilgan tizimli faoliyatdir.

Mustaqil ishni bajarishdan asosiy maqsad – «Menejment» kafedrasida professor-o‘qituvchilarining bevosita rahbarligi va nazorati ostida talabalarni semestr davomida fanni uzluksiz o‘rganishini tashkil etish, olingan bilim va ko‘nikmalarni yanada mustahkamlash, kelgusidagi darslarga tayyorgarlik ko‘rish, aqliy mehnat madaniyatini, yangi bilimlarni mustaqil ravishda izlab topish va qabul qilishni shakllantirish hamda ushbu tariqa universitetda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga erishishdan iborat.

Mustaqil ish uchun beriladigan topshiriqlarning shakli va hajmi, qiyinchilik darajasi semestrda–semestrda ko‘nikmalar hosil bo‘lishiga muvofiq ravishda o‘zgarib, oshib borishi lozim. YA’ni, talabalarning topshiriqlarni bajarishdagi mustaqilligi darajasini asta-sekin oshirib, ularning topshiriqlarni bajarishga tizimli va ijodiy yondoshishga o‘rganib borishi kerak.

“Iqtisodiy tahlil va audit” fani bo‘yicha talabalar mustaqil ishini tashkil etishda talabaning akademik o‘zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish mumkin:

- fanning ayrim mavzularini o‘quv adabiyotlari yordamida mustaqil o‘zlashtirish, o‘quv manbalari bilan ishlash;

- seminar mashg‘ulotlariga tayyorgarlik ko‘rib borish;

- belgilangan mavzular bo‘yicha referat tayyorlash;

- O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident qarorlari va farmonlari hamda boshqa me‘yoriy hujjatlarni konspektlashtirish;

- testlar echish;

- amaliyotdagi mavjud muammoning echimini topish bo‘yicha keyslar echish;

- munozarali savollar va topshiriqlarga tayyorgarlik ko‘rish;

- talabalarning ilmiy jamiyatlari va to‘garaklarida ishtirok etish;

- ko‘rgazmali vositalar tayyorlash;

- kurs ishi (loyihalari)ni bajarish;

- hisob-kitob va grafik ishlarini bajarish;

- ilmiy maqola, tezislar va ma‘ruza matnlarini tayyorlash;

- “talaba-o‘qituvchi-kutubxona” kunida fan bo‘yicha yangi o‘quv adabiyotlari sharhini o‘qituvchi bilan hamkorlikda tayyorlash;

- axborot resurs markazida belgilangan mavzular bo‘yicha nazariy, amaliy va statistik ma‘lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va muayyan tizimga solish;

- belgilangan mavzular bo‘yicha zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida taqdimot materiallari tayyorlash;

- talabalar yotoqxonasiidagi ma‘naviyat xonasi, kutubxona, zamonaviy axborot texnologiyalar markazi imkoniyatlaridan foydalanilgan holda mustaqil o‘qish jarayonlarida ishtirok etish;

- fakultativlar va maxsus seminarlar ishlarida ishtirok etish;

- kafedralar va fakultetlarning ilmiy hamda ilmiy-uslubiy ishlarida ishtirok etish va boshqalar.

Talabalarning mustaqil ishi ta‘lim va tarbiyaning shunday vazifalariga bo‘ysundirilganki, butun o‘quv jarayoni to‘lalgicha talabalar tomonidan faol, ongli, puxta va tizimli ravishda fan asoslarini o‘zlashtirish va ularda iqtisodiy dunyoqarashni shakllantirish imkonini beradi. Bu vazifalar ta‘lim jarayoni va shaxsni shakllantirish qonuniyatlarini bilmasdan va foydalanmasdan turib hal qilinishi mumkin emas. Ularning mazmuniga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

Mavzuni mustaqil o‘zlashtirish. Fanning xususiyati, talabalarning bilim darajasi va qobiliyatiga qarab ishchi o‘quv dasturiga kiritilgan alohida mavzular talabalarga mustaqil ravishda o‘zlashtirish uchun topshiriladi. Bunda mavzuning asosiy mazmunini ifodalash va ochib berishga xizmat qiladigan tayanch iboralar, mavzuni tizimli bayon qilishga xizmat qiladigan savollarga e‘tibor qaratish, asosiy adabiyotlar va axborot manbalarini ko‘rsatish lozim.

Topshiriqni bajarish jarayonida talabalar mustaqil ravishda o‘quv adabiyotlaridan foydalanib, ushbu mavzuni konspektlashtiradilar, tayanch iboralarning mohiyatini anglagan holda mavzuga taalluqli savollarga javob tayyorlaydilar. Zarur hollarda (o‘zlashtirish qiyin bo‘lsa, savollar paydo bo‘lsa, adabiyotlar etishmasa, mavzuni tizimli bayon eta olmasa va h.k) o‘qituvchidan maslahatlar

oladilar. Mustaqil o'zlashtirilgan mavzu bo'yicha tayyorlangan matn o'qituvchiga himoya qilish orqali topshiriladi.

O'quv jarayonining ajralmas tarkibiy qismi bo'lgan iqtisodiyot nazariyasi fani bo'yicha mustaqil ishlar ko'proq referatlar qo'rinishida bo'lib kelmoqda. Referat talabalar ilmiy ishlarining birinchi shaklidir. Talabalar ilmiy ijodi o'quv jarayonlaridan biri sifatida o'qitish, bilim berish va tarbiyalash vazifalarini bajarishda o'z xususiyatlariga ega. Talaba tadqiqot faoliyatiga jalb qilinib, ilmiy adabiyotlar bilan ishlash, statistik va boshqa materiallarni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi, o'rganilayotgan hodisani tanqidiy baholashga o'rganadi, nazariyani amaliyot bilan bog'laydi va h. k.

Agar referat tayyorlashning darslik bo'yicha tayyorlangan seminar mashg'ulotidagi chiqishga qaraganda mazmun va sifat jihatdan yuqoriligi hisobga olinsa, referat shubhasiz katta foyda keltiradi. Talaba auditoriya oldida referatda bayon qilingan qoidalarni himoya qilishga, yoqlashga tayyorlanishi kerak, iqtisodiyot nazariyasini o'rganishda bu muhim ahamiyatga ega.

Referat - bu talabalar mustaqil ishlarining samarali shakllaridan biridir. Mazkur shakl talaba tomonidan referat mavzusini tanlash, unda yoritiladigan masalalar mazmunini oldindan rejalashtirish, referatni tayyorlash va muhokama qilishning barcha bosqichlarida kafedra professor-o'qituvchilarining tashkiliy-uslubiy yordami va maslahati asosidagina samarali amalga oshishi mumkin. Bu erda o'qituvchi tomonidan talabalarning referat ishlariga rahbarlik qilish qanchalik batafsil va malakali amalga oshirilganligi va referatlarga talablar mezoni qanchalik to'g'ri qo'yilganligi albatta, hal qiluvchi ahamiyatga ega. Topshiriq talabalarning referat yozish ko'nikmalarini, ilmiy qiziqishlari va bilim darajasini hisobga olgan holda berilishi juda muhim.

Ko'rgazmali vositalar tayyorlash. Talabaga muayyan mavzuni bayon qilish va yaxshiroq o'zlashtirish uchun yordam beradigan ko'rgazmali materiallar tayyorlash vazifasi topshiriladi. Mavzu o'qituvchi tomonidan aniqlanib, talabaga ma'lum ko'rsatmalar, yo'l-yo'riqlar beriladi. Ko'rgazmali vositalarning miqdori, shakli va mazmuni talaba tomonidan mustaqil tanlanadi. Bunday vazifani bir mavzu bo'yicha bir necha talabaga yoki talabalar guruhiga topshirish ham mumkin.

Mavzu bo'yicha testlar, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash.

Talabaga mustaqil ish sifatida muayyan mavzu bo'yicha testlar, qiyinchilik darajasi har xil bo'lgan masalalar va topshiriqlar, munozaraga asos bo'ladigan savollar tuzish vazifasi topshiriladi.

Bunda o'qituvchi tomonidan talabaga testga qo'yiladigan talablar va uni tuzish qonun-qoidalari, qanday maqsad ko'zda tutilayotganligi, muammoli savollar tuzishda mavzuning munozarali jihatlarini qanday ajratish lozimligi, topshiriqlarni tuzish usullari bo'yicha yo'l-yo'riq beriladi.

Ilmiy maqola, tezislar va ma'ruzalar tayyorlash. Talabaga biron-bir mavzu bo'yicha (mavzuni talabaning o'zi ham tanlashi mumkin) ilmiy maqola, tezis yoki ma'ruza tayyorlash topshirilishi mumkin. Bunda talaba o'quv adabiyotlari, ilmiy-tadqiqot ishlari, dissertatsiyalar, maqola va monografiyalar hamda boshqa axborot manbalaridan mavzuga tegishli materiallar to'playdi.

Talabalarning ilmiy-nazariy konferensiyalari ham talabalar mustaqil ishlarining shakllaridan biridir. Kafedra professor-o'qituvchilari talabalar ilmiy-nazariy konferensiyasini tashkil etish orqali o'z ishini guruhning kasbiy yo'naltirilganligini, a'zolarining yosh tarkibini, qiziqishlarini hisobga olib, tabaqalashgan holda tashkil qilishi kerak. Faqat shu holdagina talabalarning konferensiyani o'tkazishda faol ishtiroki va manfaatdorligi ta'minlanadi. Talabalarning ilmiy-nazariy konferensiyalarini "Iqtisodiy tahlil va audit" fani bo'yicha talabalarning ilmiy-nazariy konferensiyalarini quyidagi bosqichlarda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

1-bosqich – fan o'qitilayotgan barcha o'quv guruhlarida konferensiyalarni o'tkazish;

2-bosqich – har bir guruhda tanlab olingan talabalarning eng yaxshi ma'ruzalarini fakultet va fakultetlararo konferensiyaga taqdim etish va o'tkazish;

3-bosqich – fakultetlararo konferensiyada tanlab olingan eng yaxshi ma'ruzalarni umumuniversitet ilmiy-nazariy konferensiyasiga taqdim etish.

Butun guruhlar uchun yagona bo'lgan konferensiya mavzusini tasdiqlab, talabalarning ma'ruza va chiqishlarini guruhlarining qiziqishlariga qarab ixtisoslashtirish mumkin.

3.Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishning asosiy tamoyillari

Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishda «Talabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish» bo'yicha yo'riqnomada belgilangan quyidagi asosiy tamoyillarga rioya qilish maqsadga muvofiqdir:

1.Talabalar mustaqil ishlarini ikki ko'rinishda – auditoriyada va auditoriyadan tashqarida tashkil etish.

2.Talabalar mustaqil ishlarini tizimli ravishda, ya'ni bosqichma-bosqich, oddiydan murakkabga qarab tashkil etilishini ta'minlash.

3. Talabalar mustaqil ishlarining shakli va hajmini belgilashda quyidagi muhim jihatlarga e'tibor qaratish:

- talabaning o'qish bosqichi;
- muayyan fanning o'ziga xos xususiyati, o'zlashtirishdagi qiyinchilik darajasiga;
- talabaning qobiliyati, nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasiga;
- fanning axborot manbalari bilan ta'minlanganlik darajasiga;
- talabaning axborot manbalaribilan ishlay olish darajasiga;
- mustaqil ish uchun topshiriqlar kursdan-kursga o'tish bilan shakl va hajm jihatidan o'zgarib borishiga;
- mustaqil ish fan xususiyati hamda talabaning akademik o'zlashtirish darajasiga va qobiliyatiga mos holda tashkil etish.

4.Mustaqil ishni amalga oshirishda talaba bajarishi lozim bo'lgan vazifalar

Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishda quyidagi vazifalarni bajarishlari lozim:

- yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- zarur ma'lumotlarni izlab topish uchun qulay usullarni va vositalarni aniqlash;
- axborot manbalaridan samarali foydalanish;
- an'anaviy o'quv va ilmiy adabiyotlar hamda me'yoriy xujjatlar bilan ishlash;
- elektron o'quv va ilmiy adabiyotlar va ma'lumotlar banki bilan ishlash;
- Internet tarmog'idan maqsadli foydalanish;
- ma'lumotlar bazasini tahlil etish;
- ish natijalarini ekspertizaga tayyorlash va ekspert xulosasi asosida qayta ishlash;
- topshiriqlarni bajarishda tizimli va ijodiy yondashish;
- ishlab chiqilgan echim, loyiha yoki g'oyani asoslash va mutaxassislar davrasida himoya qilish.

5.Talabalar mustaqil ishi bo'yicha maslahatlarni tashkil etish tartibi

Talabalar mustaqil ishi bo'yicha maslahatlar darsi auditoriyadan tashqarida amalga oshirishga mo'ljallangan mustaqil ishlarni bajarish yuzasidan tegishli yo'llanmalar berish va uning bajarilishini nazorat qilib borish maqsadida tashkil qilinadi.

Talabalar mustaqil ishi bo'yicha maslahatlar darsi fanning kalendar-tematik rejasiga muvofiq o'tkaziladi. "Iqtisodiy tahlil va audit" fani bo'yicha talabalarning mustaqil ish mavzulari va mazmuni, ularni bajarish yuzasidan hisobot shakllari quyidagi jadvalda keltirilgan:

Maslahat darsi tegishli fan o'qituvchisi tomonidan o'tkaziladi.

Fan o'qituvchisi maslahat darsida quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

- talabalar mustaqil ishlari topshiriqlarini bajarish yuzasidan tegishli yo'llanma beradi.
- topshiriqni bajarish rejasini tuzishga yordamlashadi;
- tegishli adabiyotlar axborot manbalarini tavsiya qiladi;
- talabalar mustaqil ishlari yuzasidan tayyorlangan ishlanma, hisobot, referat, hisob-kitob va topshiriq natijalarini qabul qiladi hamda baholaydi.

Talabalar mustaqil ishi bo'yicha maslahatlar o'quv jarayonining 1 va 2 smenada tashkil etilishiga qarab talabalarning darsdan bo'sh vaqtlarida dars jadvaliga kiritiladi.

Talabalar mustaqil ta'limining mazmuni va hajmi

t/r	Mustaqil ta'lim mavzulari	Bajarish muddati	Soat
1.	Iqtisodiy tahlilning predmeti, vazifalari va mazmuni	1 –hafta	2
2.	Iqtisodiy tahlilning metodi va unda qo'llaniladigan an'anaviy usullar	2,3 -haftalar	2
3.	Iqtisodiy tahlilning turlari, axborot manbalari va iqtisodiy tahlil ishlarini tashkil etish	4,5 –haftalar	4
4.	Korxonalarining ishlab chiqarish faoliyatini ifodalovchi ko'rsatkichlarni tahlil qilish usullari	6, 7 – haftalar	6
5.	Korxonalar moliyaviy natijalarini tahlil qilish	8,9 –haftalar	6
6.	Auditning mohiyati, uning maqsadi va vazifalari. O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini tashkil qilishning xuquqiy asoslari. Auditorlik tekshiruvining turlari, hillari va shakllari.	10,11 –haftalar	4
7.	Auditda muximlik tushunchasi va auditorlik riski. Auditorlik tekshiruvlarini rejalashtirish.	12,13 –haftalar	2
8.	Auditorlik- dalillari. Ekspert ishlaridan va boshqa auditorlik tashkiloti ma'lumotlaridan foydalanish.	14–hafta	4
9.	Auditorlik tekshiruvining yakuniy bosqichi.	15 –hafta	4
10.	Aktivlar auditi	16-hafta	6
11.	Majburiyatlar auditi	17- 18 hafta	6
12	Korxonaga xususiy kapitali auditi		
Jami			50

6. Talabalar mustaqil ishlarini nazorat qilish va baholash tartibi

Mustaqil ishlarining bajarilishi "Talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi Nizomi" talablari asosida nazorat qilinadi va baholanadi. Mustaqil ishlarini baholash mezonlari talabalarga o'quv yili boshlanishi oldidan uslubiy materiallar bilan birgalikda tarqatiladi.

Mustaqil ishlarining bajarilishi "Talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi Nizomi" talablari asosida quyidagicha baholanadi:

- 86-100 ball – "A'lo"
- 71-85 ball – "YAxshi"
- 56-70 ball – "O'rta"
- 0-55 ball – "Qoniqarsiz".

Asosiy adabiyotlar

1. Abdullaev A., Abduvaxobov O., Qayumov I. Audit asoslari.- T.: UAJBNT, 2003,- 196 b.
2. Dasmuratov R.D. Audit asoslari. - T.: O‘zbekistan milliy ensiklopediyasi, 2003,-612 6.
3. Tulaxodjaeva M., Ilxomov SH.I. va boshqalar. Audit. Darslik. 1-2 jild. — T.: Norma, 2008.
4. Pardayev M.Q., Isroilov V.I. Iqtisodiy tahlil. O‘quv qo‘llanma. -T.: Mehnat, 2004. -490 6.
5. Shoalimov A.X. Tojiboyeva Sh.A. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Darslik. -T.: TDIU, 2010.-265 6

Qo‘shimcha adabiyotlar

6. O‘zbekiston Respublikasiing «Buhgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi Qonuni. -T.: 2016.
7. O‘zbekiston Respublikasiing “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni. - T.: 2000.
8. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - xar bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak.
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha xarakteristikalar strategiyasi to‘g‘risida” 2017 yil 7 fevral, PF-4947-son.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 22 dekabr 2017 yil. Toshkent, Xalq so‘zi gazetasi.
12. Berdnyukova T.B. Analiz i diagnostika finansovo-xozyaystvennoy deyatelnosti predpriyatiya. Uchebnik. -M.: Infra-M., 2010. -293 s.
13. Vaxobov A. va boshqalar. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. Darslik,- T.:SHarq, 2005.-584 b.
14. Ergeshev E.E. Iqtisodiy va moliyaviy tahlil. Darslik. -T.: Konsauditinform, 2005.-374 b.

Internet saytlari

1. www.economics.ru
2. www.ved.ru
3. www.ser.uz
4. www.uza.uz
5. www.ifmr.uz
6. www.lex.uz
7. www.ziyonet.uz

